

TURKISTON SOVET HARBIY MATBUOTI: UMUMIY VA O'ZIGA XOS JIHATLARI**Muxamadiyeva Laziza Nizomovna**

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

"Tarix" kafedrasida doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Turkiston ASSRDA bolshevistik harbiy-davriy nashrlar va ularda yoritilgan maqolalar mavzulari, ularning g'oyaviy-mafkuraviy jihatlari hamda harbiy-davriy nashrlar faoliyatiga oid bo'lgan ma'lumotlar manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, harbiy nashrlar, Sovet hokimiyati, harbiy-siyosiy jarayonlar, "Народная армия", "Красноармеец", mensheviklar.

XX asr 20-yillarida Turkistonda kechayotgan harbiy-siyosiy vaziyat bolsheviklar hukumatiga sovet davriy nashrlarining muhim tarmog'i hisoblangan harbiy nashrlarni tashkil etishga undadi.

1917-yil Fevral voqealaridan so'ng Rossiya imperiyasi hukumatiga muxolif bo'lgan yirik siyosiy kuchlarning harbiy davriy nashrlari ochiq faoliyat yurita boshladi. Xususan, bu davrda kadetlar tomonidan "Война и мир", eserlarning "Народная армия", mensheviklarning "Красное знамя", sotsial-demokratlarning "Солдатская правда", "Окопная правда", "Рабочий и солдат", "Окопный набат", "Солдат" va boshqa harbiy nashrlar faoliyat ko'rsata boshladi.

Asosiy yirik siyosiy kuchlardan biri hisoblangan sovetlar yana faol ravishda mavjud tuzumga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarini boshlab yubordi. Bunda shubhasiz harbiy nashrlar katta ahamiyat kasb etdi. 1917- yilning kuziga kelib, sobiq imperiyaning barcha hududlarida o'n beshdan ortiq bolshevistik harbiy nashrlar faoliyat ko'rsatgan. Shulardan "Армия и Флот Рабочей и Крестьянской России" gazetasi dastlabki markaziy harbiy nashrlardan biri bo'ldi¹. Bu gazeta 1917-yil 21-noyabrdan Petrograddagi "Shpalerniy" ko'chasida joylashgan Harbiy vazirlik tipografiyasida nashr etilgan. Unga muharrir etib dastlab ashshadiy bolshevistik, jurnalist K.S.Eremeyev tayinlandi. 1918-yil 18 (31) - yanvardan gazeta "Рабочая и Крестьянская Красная Армия и Флот" nomi bilan atala boshlandi².

Gazetada e'lon qilingan materiallarni asosan 2 guruhga bo'lish mumkin: rasmiy va norasmiy. Birinchi qismda Xalq Komissarlari Sovetining Qizil Armiya va Flotga oid Dekret, qarorlari shuningdek, boshqa huquqiy hujjatlar berib borilgan. Gazetaning norasmiy qismida esa bolshevistik elitaning F.E.Dzerjinskiy, K.S.Eremeyev, I.V.Stalin, N.A.Semashko va boshqa ko'zga ko'ringan vakillarining maqola va nutqlari bosilgan³.

Kezi kelganda aytish kerak, gazeta o'zining har bir sonini balandparvoz shiorlar bilan chop qildi. Xususan, "Qizil Armiyaga salom", "Qizil Armiya – inqilob himoyachisi", "Yangi Qizil Armiyaga salomlar" va boshqa shiorlar.

"Рабочая и Крестьянская Красная Армия и Флот"dan keyin bolsheviklar tomonidan bir qator harbiy gazetalar nashr qilina boshlandi. Ular jumlasiga 1918-yil apreldan nashri boshlangan "Известия Народного Комиссариата по военным делам", 1918-yil iyundan chiqqan "Красная Армия", hamda "Вооруженный народ" kabilarni kiritish mumkin. 1918-yil o'rtalaridan boshlab esa har bir uyezd, viloyat va okruglardagi harbiy komissarliklar

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki> (31.01.2022.).

² Советская военная печат. – Москва: Воен-издат, 1960. – С. 15.

³ Дмитрий Г. Российская военная периодическая печать в годы Первой мировой войны 1914-1918 гг.: Дисс... канд. ист. наук. – Москва., 2008. – С. 157.

o‘zlarining nashriga ega bo‘ladi⁴. Bundan ko‘rinadiki, sovet hukumati o‘z g‘oyalarini aholi orasida kengroq targ‘ib qilishda harbiy davriy nashrlarga katta e‘tibor qaratgan.

Ushbu nashrlarda faqatgina Qizil Armiya bilan bog‘liq materiallar berilmagan. Harbiy gazeta sahifalarida ham sovet hukumati tomonidan chiqarilgan qarorlar, dekretlar, farmoyishlar, buyruqlar, yo‘riqnoma va boshqalar muttassil berib borilgan. Sababi bu davrda nafaqat harbiy nashrlarning balki, butun sovet matbuotining asosiy maqsadlaridan biri butun aholi orasida proletar qonunchilik hamda uning siyosiy ahamiyati to‘g‘risida targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borishdan iborat edi.

1917-yildagi siyosiy o‘zgarishlardan so‘ng harbiy nashrlar yana faollashib, Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishida muhim rol o‘ynadi.

Turkiston ASSR Harbiy ishlar xalq komissarligi 9 ta bo‘limdan: kanselyariya, tezkor, askarlik xizmati, moliya, topografiya, harbiy-topografiya, artilleriya, qo‘shin ta‘minoti va joylashtirish, xo‘jalik jihozlari kabilardan iborat bo‘lgan. 1918-yil 25-sentyabrda Turkiston MIQ qoshida harbiy askar yollaydigan maxsus bo‘lim tashkil etilgan⁵. Ushbu bo‘limning asosiy vazifalaridan biri o‘lka mahalliy aholisini sovet harbiy tuzilmalariga jalb qilishdan iborat bo‘lgan.

Maxsus bo‘lim sovet harbiy tuzilmalari va uning faoliyatini mahalliy aholi orasida keng targ‘ib qilish uchun turli risolalar, e‘lonlar, darsliklar nashr qilgan. Biroq targ‘ibot-tashviqot ishlarida harbiy nashrlarga ehtiyoj tobora ortib borgan. Shuni aytib o‘tish kerak, Turkiston Respublikasida harbiy matbuotning shakllanishiga hududda ro‘y bergan qator siyosiy voqealar: Turkiston Muxtoriyatining tashkil qilinishi, “bosmachilik”ning keng miqyosida avj olishi hamda ularning tarafdorlari kundan kunga ko‘payib borganligi, chet el davlatlarining harbiy intervensiyasi va boshqalar ham turtki bo‘ldi. Chunki bunday sharoitda bolsheviklar o‘lka mahalliy aholisi orasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirmasa, o‘lkada o‘z o‘rnini boy berib qo‘yishi hech gap emas edi.

Turkiston ASSRda harbiy davriy nashrlarning keng miqyosida nashr qilinishi 1918-yilning ikkinchi yarmidan boshlandi. 1918-yil oxiri 1919-yil boshlariga kelib har bir harbiy bo‘linma o‘zining davriy nashriga ega bo‘ldi. Deyarli mavjud barcha frontlarda front gazetalarini chop qilina boshlandi. Shuningdek, siyosiy bo‘limlar bilan birgalikda qator diviziya gazetalarini faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi⁶. Umuman 1918-1919 yillarda chiqqan harbiy nashrlarni xususiyatidan kelib chiqib, front, armiya va diviziya kabi uchta turga ajratish mumkin. Shulardan armiya hayotiga oida nashrlar o‘zining keng qamrovliligi bilan alohida ajralib turgan.

O‘lkada sovet hokimiyatiga qarshi qurashni o‘z sahifalarida aks ettirgan dastlabki harbiy nashr “Красноармеец” gazetasi bo‘lib, u 1918-yildan chop etila boshlagan⁷. Uning nashr qilinishi to‘g‘risida “Наша газета”ning 1918-yilgi sonlaridan birida e‘lon harakteridagi maqola ham nashr qilindi⁸. Unda shu kunlarda Turkrespublika Harbiy komissarligining organi bo‘lgan yangi gazetaning chiqa boshlaganligi, harbiy-siyosiy, harbiy ta‘lim-tarbiya, siyosiy-tarbiyaviy, armiya hayoti shuningdek, mahalliy voqealarga oid xabarlar va feletonlar jo‘natmoqchi bo‘lgan fuqarolarni hamkorlikka chaqirib, maqolalar Turkvoyenkomatning madaniy-tarbiyaviy bo‘limida qabul qilinishi bildirib o‘tilgan.

⁴ Советская военная печат... – С. 16.

⁵ ЎзМА, Р.25-фонд, 1-рўйхат, 54-иш, 39-варақ.

⁶ Петров Ю. КПСС – руководитель и воспитатель Красной Армии (1918-1920 гг.). – Москва: Военно-издат, 1961. – С. 391.

⁷ Хамаев Н. Ўзбекистон худудида истиқлол учун қуролли ҳаракат ва унга қарши қурашнинг матбуот саҳифаларида тарғиб этилиши (1918–1934 йиллар): Тарих фанлари. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 14.

⁸ Наша газета. 25 сентября 1918 г.

Bu harakat ham “Красноармеец”ni o‘quvchilarga tanitish uchun qilingan bo‘lib, o‘lkadagi bolsheviklarni harbiy faollikka safarbar qilishda katta o‘rin egalladi.

Gazeta tahririyatiga “Коммунистическая” ko‘chasida joylashgan Harbiy komissariat binosidan bitta xona ajratilgan bo‘lib, bu ularga harbiy masalalar bilan bog‘liq yangiliklarni zudlik bilan olish va nashrga tayyorlashda ancha qo‘l kelgan.

Gazetaning dastlabki tahririyat a‘zolari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, uning kotibi etib, Harbiy komissariat xodimi Nikolay Vasilevich Serdenko tayinlangan. Nina Dudinskaya gazetada e‘lon qilinishi kerak bo‘lgan maqolalarni tahrir qilish vazifasi bilan shug‘ullangan. Shuningdek, Vera Semenovna (harf teruvchi) va Gali Kostelovalar (buxgalter va ekspeditor) ham gazeta nashr qilinishida ishtirok etishgan.

“Красноармеец” o‘z faoliyatining dastlabki davrlaridanoq Markaz bilan mustahkam aloqa bog‘lashga harakat qildi. Shu maqsadda 1918-yil 17-oktyabrda Urbax stansiyasi orqali Toshkentdan Moskvaga telegramma ham jo‘natildi. Bundan albatta Moskva boshqa hududlarda joylashgan bolshevistik harbiy nashrlarning qo‘llab-quvvatlashiga katta umid bog‘langan edi. “Красноармеец” va boshqa harbiy-davriy nashrlar Harbiy komissariatning tarbiyaviy-madaniy bo‘limi bilan o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib bordi hamda bolshevistik armiya askarlarini kommunistik ruhda tarbiyalashda muhim o‘rin tutishi ko‘zlangan edi.

Hozirgi kunda gazeta nusxalarining mavjud qismi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nodir qo‘lyozmalar bo‘limida saqlanmoqda.

O‘sha davr ayrim davriy matbuotlaridagi ma‘lumotlarda gazetaning qisqa davr mobaynida Qizil armiya askarlari orasida katta o‘ringa ega bo‘lganligi yozib o‘tilgan. Xususan, Qizil Armiya va Qizil gvardiyaning 1918 yildagi birinchi syezdida Toshkentda “Красноармеец” gazetasi tashkil qilinganligi hamda uning o‘quvchilari soni kundan kunga oshib borayotganligi⁹ aytib o‘tiladi. Bunga asosiy sabablardan biri 1918-yillarda “Красноармеец” Turkistonda nashr qilingan yagona harbiy nashr bo‘lganligi deyish mumkin.

1918-1919 yillarda “Красноармеец”da bir qator mavzular ostida materiallar berib borilgan. Xususan, gazetaning birinchi sahifasida “Tahririyat kun mavzusi” (asosan siyosiy sharhlar) nomi ostida materiallar bosilgan bo‘lsa, uning keyingi sahifalarida mamlakat va xorijda ro‘y bergan voqealar, frontlardagi harbiy harakatlarga oid tezkor xabarlar, shiorlar, siyosiy mazmundagi maqolalar, “Рабочая жизнь” sarlavhasi ostida harbiy masalalar, yo‘riqnomalar, qarorlar, she‘rlar, e‘lonlar, harbiy yo‘nalishda chop qilingan adabiyotlarga taqriz va sharhlar berib borilgan.

Umuman olganda gazetadagi materiallar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, unda doimiy ravishda o‘lkada Qizil Armiya qismlarining tashkil qilinishi, askarlar hayoti, xalqaro va mahalliy xabarlar berib borilgan. “Красноармеец” haqida yana shu narsani aytish kerak, uning ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi sonlari to‘g‘risida ma‘lumotlar yo‘q.

Gazeta 1919-yil aprel oyining oxiri va mayning boshlariga kelib o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Shu davrgacha uning 31 soni nashr qilinganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bor. “Красноармеец”ning oxirgi soni 1919-yil 22-aprelda chop qilingan.

1919-yil 17-mayda Turkistondagi bolsheviklar tomonidan “Красный фронт” gazetasining nashr qilinishi bo‘yicha maxsus majlis bo‘lib o‘tdi 24-maydan gazeta nashrdan chiqqa boshladi¹⁰. Bu davrda gazeta taxririya-tida K.M.Troyanovskiy muharrir, T.A.Perfilev kotib, Ya.G.Isakovich idora mudiri, C.A.Kreber harf teruvchi, C.N.Blodxina, D.I.Xromovlar muhbir sifatida faoliyat olib borishgan. Taxririya-tning o‘rta va yuqori bo‘g‘inida birorta ham mahalliy millat vakillari faoliyat ko‘rsatmagan.

“Красный фронт” ham avvalgi davriy nashrlardan ko‘rinishi va xususiyati jihatidan uncha katta farq qilmagan. Gazeta haftada uch marotaba ikki yoki uch sahifadan iborat ixcham

⁹ Известия ТурЦИК. – № 257. 6 декабря, 1918 г.

¹⁰ O‘zMA, 34-fond, 1-ro‘yxat, 325-ish, 122-varaq.

shaklda nashr qilingan. Unda berilayotgan maqola va materiallarni siyosat, so'nggi yangiliklar, front hayoti, qizil frontlar, proletar madaniyati, bizda (ba'zan "Turkistonda"), chet elda, umumiy bo'lim, vaqti-vaqti bilan chop etilgan harbiy-siyosiy voqealar ("Toshkent 7-avgust" va boshqalar) kabilarga ajratish mumkin.

"Красный фронт" o'z sahifalarida partiya, sovet va kasaba uyushmalari faoliyatiga oid ko'plab maqolalar va materiallarni berib borgan. Ular orasida RKP (b)ning VIII syezdi qarori ijrosi bo'yicha berilgan ma'lumotlariga to'xtaladigan bo'lsak, gazetada bu syezd qarorining asosan harbiy masalalarga oid banlari jumladan: yuqori harbiy tayyorgarlikka va intizomga ega bo'lgan katta armiyani tashkil qilish, armiya qo'mondonlari va komissarlari obro'sini oshirish, Qizil armiyaga oziq-ovqat, kiyim-kechak va harbiy qurol-yarog' bo'yicha yordam ko'rsatish va boshqalarga katta ahamiyat berildi.

"Красный фронт"ga materiallarni tanlash va ularni nashrga tayyorlashda asosan bolshevik vakillari katta o'rin egalladi. Xususan, Kommunistik partiyaning o'lkadagi rahbarlaridan hisoblangan A.F.Solkin V.Leninning xatlarini gazetada e'lon qilinishiga mas'ul hisoblangan. Bundan tashqari A.F.Solkin kelib tushgan barcha materiallarni mavzular bo'yicha ajratib berib, gazetaga g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan rahbarlik qilgan. "Туркестанского коммуниста" muharriri P.A. Kobozev siyosiy-partiyaviy maqolalarning nashriga, "Известия Туркестика" muharriri V.Sveshpikov sovet qurilishiga oid materiallarga, "Красный фронт" muharriri D.I.Stratulenko esa harbiy va adabiy mazmundagi materiallarning nashri uchun mas'ul etib belgilangan. Mana shundan ham ko'rsa bo'ladiki, bolsheviklar o'lka mahalliy aholisini o'z tarafiga og'dirib olishda harbiy-davriy nashrlarga katta ahamiyat bergan.

Gazetaning nashr qilinishida muhim rol o'ynagan shaxslar haqida muharrir D.I.Stratulenko ham o'z qaydlarida yozib o'tgan: "Biz har kuni kech soat oltida Shipkinskiy (Pochtovaya) ko'chasida joylashgan bosmaxona binosida majlis o'tkazar edik. Majlisda P.A. Kobozev, Sveshnikov, Galich men va boshqalar katnashishgan. Sveshnikov va Galich tajribali jurnalistlar singari tahririyatga kelib tushgan materiallarni qisqartirish, talablarga moslash, tahrir qilish ishlarini bajarishgan¹¹.

1919-yilda "Красный фронт" gazetasi umumiy 8 sahifadan iborat bo'lib, unda berilayotgan materiallar quyidagi tartibda joylashtirilgan: birinchi sahifaning boshida "Bugungi Sovet Rossiyasi proletar inqilobning ikkinchi yilligini nishonlaydi. Boshqa bir katta bayram – proletariatning dunyodagi g'alabasi tez orada kelsin!" shiori joylashtirilgan. Yuqori chap tomonda bosh harflar bilan Lenin xatlari sarlavhasi ostida u bilan bog'liq materiallar berib borilgan. Ikkinchi sahifada sovet qurilishi bilan bog'liq jarayonlar berilib, sobiq imperiya davrida ishchilar turmushi, keyingi ikki yillikda ularning hayotida ro'y bergan o'zgarishlarga alohida urg'u qaratilgan.

Ikkinchi va uchinchi sahifalarda asosan 1917-yil oktyabr bilan bog'liq maqolalar: "Rossiyadagi burjua va proletar inqilobi" (muallifi Apina), Yuriya Talina tomonidan yozilgan "Natijalar" (Inqilob Rossiya mehnatkashlariga nima berdi?) nomli maqola shuningdek, 1917-1919 yillarda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan ishlarga oid nutqlar, ma'ruzalar, tezislar ("Jahon inqilobida Sharqning roli"), ("Ikkita diktatura va ikkita armiya") hamda bayroqlar va plakatlar uchun shiorlar bosilgan.

Umuman olganda gazetaning 1919-yil yubiley sonida saksonga yaqin material e'lon qilingan bo'lib, shundan o'n yettitasi ichki va tashqi hayotdagi muhim masalalarga, to'qqizta she'r, o'n sakkizta shior va boshqa shu kabilar o'rin olgan.

"Красный фронт" g'oyaviy-mafkuraviy yo'nalishda olib borgan ishlari mahalliy sovet matbuotiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xususan, Farg'onada nashr qilingan "Пролетарская мысль" gazetasining 1919-yil 16-noyabrdagi 243 va 244-sonlarida shu jihatlariga e'tibor qaratilgan. 244-sonda to'rtinchi Turkiston polki askarlari tomonidan uyushtirilgan miting va

¹¹ Фрунзавец. – № 95. 21 апреля, 1960 г.

uning ahamiyati ochib berilgan. Ko‘rinadiki, bolshevistik harbiy-davriy nashrlarning targ‘ibot-tashviqot ishlari barcha yo‘nalishlardagi sovet nashrlari tomonidan keng ommalashtirilgan.

Bir qator manbalarga tayanib shuni aytish mumkinki, “Красный фронт” Turkistondagi Qizil Armiya qismlari uchun siyosiy tribuna vazifasini bajarib bergan. Gazetada front va uning ortida ro‘y bergan voqealar, kunlik xabarlar ham bosilib turgan. Biroq uning asosiy e‘tibori o‘lkada ro‘y berayotgan g‘oyaviy-siyosiy voqealarga qaratilgan edi. Faqatgina “Красный фронт”ning ko‘pincha to‘rtinchi sahifasida berilgan “Front hayoti” bo‘limida harbiy masalalar bilan bog‘liq voqealar aks etgan maqolalar va xabarlar bosilgan.

Turkiston Respublikasidagi dastlabki harbiy nashrlardan yana biri “Горнист” bo‘lib, jarida Kaspiyorti qoshidagi siyosiy bo‘limining organi hisoblangan. “Горнист” 1919-yil 26-aprelda Chorjo‘y shahrida chiqa boshlagan.

“Горнист” haftada uch marotaba nashr qilinib, asosan rasmiy, ma‘lumot va xabarlar, qizil armiyaliklar fikri, armiya hayoti, qora sahifa va boshqa shu kabi bo‘limlardan iborat bo‘lgan. Ikki ba‘zan to‘rt sahifadan iborat holatda nashrdan chiqarilgan. Gazetaning saqlanib qolgan ko‘p sonlari ikki sahifadan iborat ekanligini ko‘rish mumkin. Gazetaning aniq tiraji haqida bir narsa deyish qiyin. Biroq shuni aytish mumkinki, “Горнист”ning umumiy soni bir necha mingdan kam bo‘lmagan.

Xullas, “Горнист” 1919-yil avgustdan alohida faoliyat ko‘rsatmagan bo‘lsa-da, gazeta Byulletenning tarkibida ham qamrov ko‘lamini yo‘qotmadi. Gazeta 1920-yil yanvardan o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Biroq malakali kadrlar, zarur kanselyariya mollarining yetishmasligi, tipografiyalarning kamligi oqibatida harbiy nashrlar ishi pala-partish tashkil qilingan bo‘lsa, ayrim harbiy nashrlar o‘z faoliyatini hali to‘liq yo‘lga qo‘ymasdan turib, boshqa nashrlarga qo‘shib yuborildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘z MA, R.25-fond, 1-ro‘yxat, 54-ish, 39-varaq.
2. O‘z MA, 34-fond, 1-ro‘yxat, 325-ish, 121-varaq.
3. Фрунзавец. – № 95. 21 апреля, 1960 г.
4. Советская военная печат. – Москва: Воен-издат, 1960. – С. 15.
5. Советская военная печат... – С. 16.
6. Наша газета. 25 сентября 1918 г.
7. Известия ТурЦИК. – № 257. 6 декабря, 1918 г.
8. Петров Ю. КПСС – руководитель и воспитатель Красной Армии (1918–1920 гг.). – Москва: Воен-издат, 1961. – С. 391
9. Дмитрий Г. Российская военная периодическая печат в годы Первой мировой войны 1914-1918 гг.: Дисс... канд. ист. наук. – Москва., 2008. – С. 157.
10. <https://ru.wikipedia.org/wiki> (31.01.2022.)